

TURLI SOHALARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN ROLI

Shodaliyeva Madinabonu

FarDU filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs 23.85-guruh talabasi

Aldashev Ilxomjon

FarDU Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining bugungi kundagi ahamiyati, deyarli barcha sohalarda muhim o'rin egallayotganligi va ularning rivojlanishida tutayotgan roli haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Axborot texnologiyalari, kompyuter, tashkilot, korxonalar, mijoz, biznes sohasi, bank sohasi, robototexnika sohasi, marketing, ilm-fan sohasi, tibbiyot sohasi, elektron hukumat.*

THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN VARIOUS FIELDS

Abstract: *This article talks about the importance of information technology today, the fact that it occupies an important place in almost all fields and the role it plays in their development.*

Keywords: *Information technologies, computer, organization, enterprise, customer, business, banking, robotics, marketing, science, medicine, e-government.*

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunimizni texnika, texnologiyasiz tasavvur etish qiyin. Chunki hayotimizning deyarli barcha sohalariga axborot texnologiyalari o'zining sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotgani hammamizga ma'lum.

Axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuterlar ko'p foydalanilayotgan ayrim sohalarni aytib o'tamiz.

Biznes sohasi. Axborot texnologiyalari ma'lum bir korxonalar yoki firmaning muvaffaqiyatli rivojlanishida katta o'rin egallaydi. Masalan, korxonaning yillik yoki oylik daromad va chiqimlarini hisoblab chiqish ancha mushkul. Shunday paytda kompyuterda turli xil formulalar orqali hisoblash bu muammoga yechim bo'la oladi. Shuningdek:

- tashkilotga tegishli hujjatlarni tartibga keltirishda;
- korxonalar xodimlari, mijozlar haqida ma'lumotlarini ro'yxatini saqlashda;
- turli firma, korxonalar bilan shartnomalar tuzishda va hokazolarda axborot texnologiyalarining, ya'ni kompyuterlarning xizmati beqiyos.

Bank sohasi. Bank tizimi o'zining ish faoliyatida axborot texnologiyalaridan ko'p foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan tashkilot hisoblanadi. Misol uchun, siz istagan paytingizda, ya'ni sutkasiga 24 soat davomida sizga kerak bo'lgan ma'lumotlarni tez va qulay usulda ma'lum bir algoritm asosida olishingiz mumkin. Deylik, siz qarz olgan bankingizdan ancha olisga ketishga majbur bo'ldingiz. Ammo hozir bu muammo emas,

ya'ni siz istagan joyingizda turib onlayn to'lovni amalga oshirishingiz mumkin. Bu ham axborot texnologiyalarining qulay imkoniyatlaridan biridir.

Robototexnika sohasi. Bilamizki, "robot" so'zi bizning tilimizga boshqa tildan kirgan bo'lib, "qul" degan ma'noni anglatadi. Ilk bor bu so'z 60 yil burun taniqli chexiyalik yozuvchi Karl Chepek o'z asarlarida ishlatgan. Ammo bunday robotlar bundan oldin ham paydo bo'lgan. Ya'ni insonlarning qobiliyatiga ega bo'lgan musiqachi qo'g'irchoqlar mana shunday robotlarning ishini ma'lum darajada bajara olgan. Kompyuter shiddat bilan kirib kelishi bilan insonlarni og'ir mehnatdan xalos etadigan robotlar paydo bo'ldi. Garchi ular odam qiyofasida bo'lmasa ham, insonlar qila olmaydigan ishlarni ma'lum bir funksiyalar orqali bajara oladi. Hammamizga ma'lumki, mana shunday robotlardan bugungi kunda UzDAEWOOavto korxonasida qo'llanilib kelinmoqda. Bundan tashqari, mashinasozlik zavodlarida, qurilishda robotlar xizmatidan keng foydalaniladi.

Ta'lim sohasi. Bu sohada axborot texnologiyalarining o'rni katta ahamiyatga ega. Bilamizki, bir necha yillar oldin "koronavirus" kasalligi paydo bo'lgani sabab barcha muassasa, tashkilot va shu kabilar karantin holatiga o'tilgan edi. Bu holat ta'lim sohasida ancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi, ya'ni o'quvchilarning bilimi ancha pastladi, desak, yanglishmaymiz. Biroq biz texnika asrida yashayapmiz. Shuning uchun ham bunday muammolar o'z yechimini topdi: onlayn o'qitish tizimiga o'tildi hamda televideniya orqali darslar mutaxassis ustozlar orqali o'tib borildi. Bu ham texnologiyaga borib taqaladi. Bundan tashqari, universitet yoki maktabda ishlayotgan ustozlar kompyuter bilan ko'p muloqotda bo'lishadi. Kompyuter imkoniyatlaridan foydalangan holda ular turli mavzular doirasida taqdimotlar tayyorlashi mumkin. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o'quvchi- talabalarga mashg'ulotni yanada qulay tushunishlariga ko'mak beradi.

Kompyuter va san'at. Bu ikki tushuncha bir-biriga uzviy aloqador. Masalan, kompozitor musiqa yaratishda kompyuterdan unumli foydalanishi mumkin. Deylik, kino tasvirga olinyapti. Kino davomiyligi 2 soat bo'lishi belgilab qo'yilgan. Lekin tasvirlar bu chegaradan chiqib ketdi. Xo'sh, kino tasvirga olish qaytadan boshlanadimi? Aslida bu ish hozir muammo emas. Chunki kino voqealarini tahrir qilayotgan montajchi ortiqcha qizmlarni kompyuterda kesib tashlashi mumkin. Bu esa insonlarning vaqtini tejashga yordam beradi.

Bugungi kunda yosh bolalar internetdagi turli multfilmlarni tomosha qilish orqali zavqlanishyapti. Chunki e'tibor bersak, ko'p yillar orqali namoyish etilgan multfilmlar yoki ertaklar bugungi kunda yosh bolalarni uncha e'tiborini tortmayotganini guvohi bo'lamiz. XXI asr – internet asri, texnika – texnologiya asri. Bugun kompyuter bizning do'stimiz bo'lib qolgan. Ana shu texnika yordamida rassomlar o'z loyihalarini tatbiq etib dunyoga mashhur bo'lishmoqda.

Tibbiyot sohasi. Inson tug'ilibdiki, albatta, bir kun kasal bo'ladi va shifokorga murojaat qiladi. Shifokor huzuriga borar ekansiz, uning ish stolida meditsina asboblardan tashqari, kompyuter joy olganligini ko'rishingiz mumkin. Kompyuter

xotirasiga sizga tegishli ma'lumotlar va kasalligingiz haqida ma'lumotlar kiritilgach, sizning kasalligingiz bo'yicha tez va aniq tashxis kompyuter tomonidan qo'yiladi. Bu esa tibbiyot sohasi uchun katta yutuqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yana bir nechta sohalarda ham axborot texnologiyalari o'z o'rnini topganligi mumkin. Bu faqat muqim sohalardan bir nechta misollar bo'lib, har bir sohada axborot texnologiyalari o'zlashtirilganligi sababli uning umumiy rolini belgilash qiyinroq. Bugungi kunda axborot texnologiyalari kirib bormagan soha topilmasa kerak. Chunki hech bir ishimiz texnika- texnologiyasiz bitmaydi. Sababi bu sohaning kirib kelishi bilan insonlarning og'iri yengil bo'ldi, vaqti tejaldi, turli ishlarda samaradorlikni oshirishda muhim tasvir vositasi bo'lib xizmat qildi. Shuning uchun hozirda axborot texnologiyalariga talab ortib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.Yuldasheva "Axborot texnologiyalari-ta'lim sifati kafolatidir" "Экономика и социум" №4(83) 2021 www.iupr.ru
2. I.Aldashev, N.Otaxonov "Boshlang'ich ta'lim jarayonini axborotlashtirish omillari" "Экономика и социум" №2(81) 2021 www.iupr.ru
3. С.Жабборова "Способы повысить интерес студентов к изучению темы и объем самостоятельной работы" "Экономика и социум" №6(73) 2020 www.iupr.ru
4. Norbo'taev X.B., Eshquvatov Sh "Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi" zamonaviy ta'lim / Sovremennoe Obrazovanie 2015, 6